

5. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH BA Erkinovna// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 1-3
6. ГРАММАТИК ЛУФАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ШАКЛИГА СЎЗЛАРНИ ТУРКУМЛАР БЎЙИЧА ТАНЛАБ ОЛИШ ТАМОЙИЛИ: Ботирова Адиба Эркиновна, Навоий давлат педагогика институти доценти
7. АЭ Ботирова Образование и инновационные исследования международный научно-методический
8. THE PRINCIPLE OF SELECTING WORDS BY CATEGORY IN THE ELECTRONIC FORM OF MATHEMATICAL DICTIONARIES A Botirova
9. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 1-11
- 10.Grammatik o‘quv lug‘atlari tuzish va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar A Botirova Til, ta’lim, tarjima 3 (5), 59-66

“NAVODIR USH-SHABOB” DEVONI G‘AZALLARIDGI AYRIM SO‘ZLARNING SEMATIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

**G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy innovatsiyalar universiteti**

Annotatsiya: Maqolada “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarda qo‘llanilgan so‘zlarning bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik xususiyatlari yoritish hamda Navoiy lirk ijodi davomida juda ko‘p marotaba murojaat qilgan, shu bilan birga kam o‘rinda qo‘llagan so‘zlarning, semantik, leksik, etimologik jihatlarini tahlil qilingan. Turg‘un birikmalarining integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalari guruhlangan, devondagi izohtalab so‘zlarning bugungi tilshunosligimizdagi ma’nosи haqida ilmiy-amaliy tahlillar, fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: semantik ma’no, izohtalab so‘z, devon, g‘azal, sema, integral, differensial, teglash, tahlil.

“НАВАДИР УШ-ШАБАБ” ДЕВАНИ ГАЗЕЛИ - СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА НЕКОТОРЫХ ДРУГИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация: В статье раскрываются особенности однозначных и многозначных слов, неоднократно употребляемых в газелях дивана «Наводир уш-шабаб», на протяжении его лирического творчества Навои, при этом рассматриваются семантические, лексические и проанализированы этимологические аспекты слов, использованных в статье. Сгруппированы интегральная (объединяющая) и дифференциальная (дифференцирующая)

схемы устойчивых сочетаний, выделены научно-практические анализы и мнения о значении слов словаря в современном языкоизнании.

Ключевые слова: смысловое значение, поясняющее слово, деван, газель, сема, интеграл, дифференциал, маркировка, анализ.


“NAWADIR AL-SHABAB” BY DEWANI GHAZALI - SEMANTIC PROPERTIES OF SOME OTHER STUDIES

Annotation: The article reveals the features of single-valued and polysemantic words repeatedly used in the ghazals of the divan “Navodir ush-shabab” throughout Navoi’s lyrical work, while semantic, lexical and etymological aspects of the words used in the article are analyzed. Integral (unifying) and differential (differentiating) schemes of stable combinations are grouped, scientific and practical analyzes and opinions on the meaning of dictionary words in modern linguistics are highlighted.

Key words: semantic meaning, explanatory word, devan, gazelle, sema, integral, differential, marking, analysis.

Navoiyshunos olim Aziz Qayumov “Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar” asarida: Navoiyning “Xazoyin ul-ma’oni” asari bu “Ma’nolar xazinasi” demakdir. “Xazoyin ul-ma’oni” she’rlar to‘plami Navoiyning she’riy merosini o‘rganishda eng asosiy manba hisoblanadi deydi [7]. Shu ma’nodada Xazoyin ul-ma’oni” tarkibidagi g‘azallardagi ayrim so‘zlarning semantik ma’nolari tahlilini ko‘rib chiqamiz. Bizga ma’lumki, tilshunoslikda so‘z ma’nosи va semantik tarkib tushunchalari, denotativ hamda konotativ ma’no, shuningdek, integral va diffirensial ma’no kabi tushuncha, terminlar ustida bir qator ishlar olib borilmoqda [8]. So‘z va uning ma’no tarkibini izchil o‘rganish tilga yaxlit bir tizim sifatida qaralgandagina amalga oshishi mumkin. So‘zning borliqdagi narsa, hodisalar haqidagi dastlabki ma’nosи leksik yoki denotativ ma’nosи hisoblansa, shu leksik ma’noga hissiy, turli munosabatni ifodalovchi qo‘sishimcha ma’nosи – konnotativ ma’nosи hisoblanadi. Bir leksik semantik guruhga kiruvchi so‘zlarning ma’no va vazifalarini aniqlashda ular tarkibidagi integral (birlashtiruvchi) va diffirensial (farqlovchi) semalar muhim rol o‘ynaydi. Boshqacha aytganda, so‘zning ma’nosи va ma’no tuzilishi turlicha integral va diffirensial semalar yig‘indisidan iborat. Mazkur devondagi g‘azallarni tahlil qilish jarayonida ko‘plab so‘zlarning denotativ ma’no bilan bir qatorda konnotativ ma’nolari aks etganligini yoki ayrim so‘zlar ma’noviy birliklarida integral (birlashtiruvchi) va diffirensial (farqlovchi) semalar kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Bularning barchasi Navoiyning tengsiz so‘z ustasi ekanligini isbotlasa, yana bir jihatи turkiy so‘z imkoniyatlarining naqadar keng ekanligidan dalolat beradi.

Bisot – aslida arabchadan olingen bo‘lib, gilam ma’nosini bildiruvchi bu so‘z. Navoiy asarlarida turli xil ma’nolarda kelgan bo‘lsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘z konatativlik asosida ma’no torayishiga uchragan. Bisot so‘zinibadiiy uslubda ayollarga nisbatan shaxsiy mulk ma’nosida qo‘llanilib kelinmoqda [10].



Alisher Navoiy so'z ko'laming boyligi, grammatik shakllari, fonetik tuzilishi, lug'at hajmining kengligi g'azallarda qo'llanilgan so'z va iboralarning uslub xususiyatlarini predmet, belgi, harakat kabilarni turli tomondan shaklan ixcham, qisqa va aniq ifodalashda ahamiyatga ega. Tilning aniqligi haqida shoirning o'zi "Mahbub ul-qulub" asarida shunday fikr bildirgan: "Odamiy til birla soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning birla soyir insonga sarafroz bo'lur. Til – muncha sharaf bila nutqning quroolidir" [1]. Navoiy tilining lug'at boyligi, lug'aviy birliklarining turli uslubiy maqsadlarda qo'llaganligini bilish tahlilda juda muhim ahamiyatga egadir.

Eng qadimiy lug'atlardan biri hisoblangan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida "ko'z" leksemasi ilk bor tilga olingan [5]. "yoqimli ko'z", "xumor ko'z", "mastona ko'z" kabi birikmalar faol ishlatilgan. "Hazoyin ul-maoniy" kulliyoitida 2000 dan ortiq o'rirlarda bir necha xil leksik ma'nolarda qo'llanilgan *ko'z* leksemasi integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar guruhibi tashkil etadi. "Ko'z" leksemasining integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar hosil qilishi o'zbek tili imkoniyatlarini yanada mazmunan boyitgan. "Ko'z" sememasini bir qator so'zlar bilan birga qo'llanilib, turli birikmalarni hosil qilgan: *qotil ko'z, ko'zi sayyod, shirin ko'z, ko'z tutmoq, pariy ko'z, kofir ko'z, usruk ko'z, xunxor ko'z, xunrez ko'z, ayyor ko'z, minnatdor ko'z, bedor ko'z, bemor ko'z, afgor ko'z, giryon ko'z, diydor ko'z, shahlo ko'z, kofir koruxsor ko'z, nargis ko'z, zaxmin ko'z, shikastin ko'z*:



“Ko‘z”ning leksik-semantik guruhga oid sememalardagi semalar shu sememalar uchun umumiylar yoki xususiy ekaniga ko‘ra, umumiylar – birlashtiruvchi (integral) sema va farqlovchi (differensial) semalarni tashkil etadi. Ko‘z leksemasi turli so‘zlar bilan birikib, *ijobiy* hamda *salbiy* ma’no bo‘yoqdorligini aks ettirgan.

Ma’lumki, so‘z – badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratish, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So‘zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagi narsa predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan so‘zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma’no ko‘chish yo‘llarini hosil qilishgan. Buning natijasi o‘laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o‘z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan. Shoir lirikasi mavzu doirasining kengligi, g‘oyaviy-badiiy dunyosining boyligi, ayni paytda chuqur fikrlar silsilasining betakror ifodasini ta’min etgan yuksak badiiy fazilatlari bilan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy arabcha, forsiy va turkiy poeziyaning boy tajribalarini o‘zlashtirib ularni o‘z asarlarida aks ettirdi. So‘zning lingvistik va semantik xususiyatlarini keng yoritishga muvaffaq bo‘ldi [3].

Navoiy g‘azaliyotida nafaqat ma’lum ranglar, balki ularning o‘nlab tuslari ham poetik tasvir doirasiga jalb etilgan: qora, oq, sariq, qizil, arg‘uvoniylar, yashil, sabza, binafsha, simobiylar, savsaniylar, siymgun, lolagun, gulgun, otashin, shafaqgun, qirmiziylar, gulnoriy, la’lgun singari atamalar behisob [2]. La’l so‘zining leksik ma’nosini qizil rangli tosh bo‘lgani uchun g‘azallarda, ko‘pincha, qizil rangga ishora etiladi. Jumladan, Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardashe” asarida:

La’l sang astu degi sangin sang,
Lek andar miyon tafovutxost. [4].

Alar qoyilining maqsudining naqizi jonibdin so‘z boshlab dedilarki, shayxe aytibdurki, tosh qozon va la’l – ikkalasi toshdur va lekin oralarida tafovut bor. Tosh qozondin g‘ayri naf’ hech nima mutasavvar ermaskim, laziz va mulavvan at’ima anda pisharkim, xosu om andin muntafe’ bo‘lurlar va la’ldin xaloyiqqa anvoi zarar mutasavvardur. La’l ham tosh, qozon ham toshdan bo‘lgan. Tosh qozonda taom

pishadi, undan barcha bahramand bo‘ladi, biroq la’ldan xalqqa zarar yetadi. Baytda la’l so‘zining o‘z ma’nosiga ishora etilib, uning qimmatbaholigiga xalqdan undirilayotgan soliqlar nazarda tutilgan [6].

G‘azallarda juda ko‘p uchraydigan “la’l” so‘zi badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanilib, bir qarashda bir xil ma’noda kelayotgandek ko‘rinsa-da, leksik jihatdan shakldoshlik (omonim) xususiyatlariga ham ega hisoblanadi. g‘azallaridagi bir mazmuniy guruhga mansub leksemalarning semantik tarkiblaridagi integral (birlashtiruvchi) va differensial (farqlovchi) semalar leksemalarni o‘zaro birlashtirish va farqlash uchun xizmat qiladi. Devondagi g‘azallarda 183 marotaba badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanilgan la’l so‘zida sema va semema xususiyatlarini kuzatish mumkin. Semantik guruhlar esa la’l so‘zi bog‘lanib kelgan so‘zga aloqador. Masalan, g‘azallarda yor tasvirida kiyimlar, matolar tilga olinganda “libosi la’l gun”, “gulgung terlik” “gulrang qabo” [8]. birikmalar hosil qilingan. Shunga ko‘ra, la’l so‘zini quyidagi semantik guruhlarga ajratamiz. Bu guruhlarda la’l so‘zi bilan birlashib kelgan so‘zlar o‘zaro integral semantik guruhlarni tashkil etadi:


I. Kulib turgan yoki tabassumli lab holatiga ko‘ra: “la’li xandon”, “la’li shakkarxanda”, “shirin la’l”, “no’shi la’l”;

II. Rang-tusga ko‘ra: “la’l gun”, “la’l rang”, “la’lu yoqut”, “la’li otashin”, “rangi la’li”, “labi la’li”;

III. Hayotbaxshligiga ko‘ra: “la’li jonbaxsh”, “la’li jonfizo”, “la’li ruhafzo”, “xotami la’l”;

IV. Tasavvufiy mazmunga ko‘ra: “bodayi la’l”, “la’ling mayi”, “mayi la’li”, “la’li jomi”, “la’li nob”.

Ushbu so‘z birikmalari bitta mazmuniy guruhga birlashadi va shunga ko‘ra *integral (birlashtiruvchi) sememalar* sanaladi.



“La’l”ning leksik-semantik guruhiga oid sememalardagi semalar shu sememalar uchun umumiyligi yoki xususiy ekaniga ko‘ra, umumiyligi – birlashtiruvchi va farqlovchi semalarni tashkil etadi. G‘azallarda la’l leksemasi turli so‘zlar bilan birikib, *ijobi*y hamda *salbi*y ma’no bo‘yoqdorligini aks ettirgan. Ayni paytda keltirilgan leksemalarning ma’no tarkibida differensial semalar ham mavjud. Masalan, la’l so‘zi bilan bog‘liq holda bir paytning o‘zida ham jon bag‘ishlovchi – *jonfizo la’l*, ham jon oluvchi, qonga bo‘yalgan – *la’l gun* kabi ma’noda qaramaqarshi turuvchi jihatlar uchraydi. Navoiy o‘ziga xos tarzda *ko’z*, *la’l* leksemalarini *ijobi*y va *salbi*y ma’nolarda keng qo‘llagan. Muayyan so‘zning turli ma’nolarda qo‘llanilish ko‘lami keng bo‘lgani uchun korpusda uni satrma-satr maxsus ID raqamlash orqali semantik teglash zarur hisoblanadi. Shundagina foydalanuvchiga

so‘zning o‘z qo‘llanilish o‘rni bo‘yicha kontekstual izohi taqdim etiladi. Buning uchun shoir ijodiga mansub har bir g‘azal o‘ziga xos tahvilni va alohida yondashuvni talab etadi. Sababi har bir g‘azalda mutafakkirning o‘z ijod uslubiga xos alohida badiiy fikri va ruhiy holati ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – B. 102.
2. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. To‘la asarlar to‘plami. 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B.14-15.
3. Abjalova M. G‘ulomova N. Создание лингвистической базы данных для авторского корпуса Алишера Навои. – Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «Turklang2023» – Buxoro, 2023 – B. 659-669.
4. Ishoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 149.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1963. – B. 91.
6. Olimov F. Fazilatlar sohibi-Sayyid Xasan. – Toshkent.: 2021. – B. 161.
7. Qayumov Aziz. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar. – Toshkent. 2014. – 207 b.
8. Qilichev Ergash. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Buxoro. 2009. 60-bet.
9. Xo‘jayev T. Navoiy davri hayotini anglashga doir ba’zi mulohazalar. – Toshkent: 2021. – B. 52.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy enselopediysi, 2006.
11. Sharipova N. Hayrat-ul abror strukturasida munojotning o‘rni. The American Journal of Social Sciense and education innovations 5 (12), 73-76, 2023

FRANSUZ TILIDA TILSHUNOSLIK TERMINLARINING O‘ZBEK TILIDAGI MILLIY-MADANIY JIHATLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna

**O‘zbekiston, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Fundamental va gumanitar fanlar kafedrasи PhD, dotsent v.b.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik terminlarining asl etimoni fransuz tilidan kelib chiqganligi va uning bugungi kun tilshunosligida qo‘llanilishi, ahamayati, milliy madaniy xususiyatlari xususida so‘z boradi. Shuningdek, tilshunoslik terminlarining o‘zi atayotgan tushuncha, narsa hodisaning mohiyati qay darajada to‘g‘ri va aniq ekanligi ochiqlandi.

Kalit so‘zlar: termin, etimon, leksema, so‘z birikmasi, mazmun, milliy madaniy xususiyat.